

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11193453>

IMOM AT TERMIZIY – BUYUK MUHADDIS

O'ktamov Tohirjon G'ayrat o'g'li,

Namangan davlat universiteti

Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail:oktamovtohir2@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Surxon elining buyuk farzandi, mashhur muhaddis Abu Iso Muhammad Termiziyning ibratli hayot yo'li va ilmiy-ma'naviy merosi haqida m'alumot berilgan.

Kalit so'zlar: Termiz, Imom at Termizi, Iraq, Makka, Madina, muhaddis, "Al-Jome'", "Sunani Termizi", "ash-Shamail an-nabaviya", mustaqillik.

Annotation: In this article, information is given about the exemplary life path and scientific and spiritual heritage of the great son of the Surkhan family, the famous muhaddith Abu Isa Muhammad Termizi.

Key words: Termiz, Imam at Termizi, Iraq, Mecca, Medina, muhaddis, "Al-Jame'", "Sunani Termizi", "ash-Shamail an-Nabawiya", independence.

Аннотация: Аннотация: В данной статье даны сведения об образцовом жизненном пути и научном и духовном наследии великого сына рода Сурханов, знаменитого мухаддиса Абу Исы Мухаммада Термизи.

Ключевые слова: Термез, Имам в Термизи, Ирак, Мекка, Медина, мухаддисы, «Аль-Джаме», «Сунани Термизи», «Аш-Шамайл ан-Набавия», независимость.

Markaziy Osiyo mintaqasida qadimiy va hamisha navqiron Termiz shahrining o‘ziga xos strategik o‘rni bo‘lib, shahar buyuk yo‘llar chorrasasida joylashganligi bilan ajralib turadi. Termizda islomgacha dinlararo bag‘rikenglik munosabatlari qaror topgan bo‘lsa, o‘lkaga Islom dini kirib kelgach esa jahon sivilizatsiyasi tarixida tub burilish yasadi. Bu ma’naviy aks sado Markaziy Osiyoda Islom ilmining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan va bu jarayonda Termiz ilk g‘oyaviy markaz vazifasini o‘tagan. VII – IX asrlarda Termizda shakllangan ma’naviy muhit Markaziy Osiyo taraqqiyotining turli jabhalariga katta ta’sir ko‘rsatgan.

O‘rta asrlarda yashagan ko‘pgina olimlar ilm-fanning turli sohalariga oid dunyoviy fanlar bilan birga diniy ilmlar rivojiga ham katta e’tibor berganlar. Zotan diniy ilmlar jamiyat taraqqiyotida, insonlarning kamol topishi va ular dunyoqarashining shakllanishida alohida rol o‘ynaydi.

Yirik madaniyat markazi Termizda tavallud topgan, o‘zidan buyuk ma’naviy va ilmiy meros qoldirgan, jahonshumul ahamiyatga ega asarlar yaratgan allomalardan biri – mashhur muhaddis (hadis ilmi olimi) Abu Iso Muhammad at-Termiziyidir. Uning to‘liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dahhok as-Sullamiy (umrining oxirlarida ko‘zi ojiz bo‘lib qolganligidan ad-Dariyr taxallusi bilan ham atalgan) at-Termiziy bo‘lib, u hijriy yil hisobda 209 (milodiy 824)-yilda Termizda, uncha badavlat bo‘lmagan oilada tavallud topgan [2. – B. 55.].

Markaziy Osiyolik mashhur olim va tarixchi Abu Sa’d Abdulkarim as-Sam’oni (1113/1167) “Al-Ansob” nomli asarida yozishicha: “at-Termiziy Bug‘ (hozirgi Sherobod tumani) qishlog‘ida vafot etganligi uchun uning nomiga al-Bug‘iy taxallusi ham qo‘silgan”. Allomaning el orasida at Termiziy nomi bilan mashhur bo‘lisiga sabab, uning butun hayoti va faoliyati Termiz shahri bilan bog‘liq bo‘lganligidan, shuningdek, olim tug‘ilgan Bug‘ qishlog‘i Termiz shahriga yaqin bo‘lib, ma’muriyidoraviy jihatdan unga mansub qishloqlardan ekanligidan deb izohlanadi.

Yozma manbalar, tarixiy osori-atiqalardan ma’lumki, o‘rta asrlarda Termiz ham Markaziy Osiyoning Urganch, Buxoro, Samarqand singari ilm-fan va madaniyati rivojlangan shaharlardan biri bo‘lgan. Mana shunday madaniy muhitda o’sgan at-

Termiziy yoshligidan turli ilmlarni egallahsga zo'r qiziqish bilan intilgan. Bolaligidan o'ta ziyrakligi, yodlash qobiliyatining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan at-Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallab, bu boradagi o'z bilimlarini muttasil oshirish uchun ko'pgina Sharq mamlakatlarini ziyorat qilgan. Jumladan, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Ko'p yillar davom etgan safarlari chog'ida, at-Termiziy ilm-fanning turli sohalaridan – ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, o'zi yoshligidan qiziqqan hadis ilmidan o'z davrining yirik olimlari — mashhur muhaddislaridan ta'lif olgan. Uning ustozlaridan Imom al-Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Sa'iyd, Is'hoq ibn Muso, Mahmud ibn G'aylon va boshqa mashhur muhaddislarni ko'rsatish mumkin [2. – B. 56.].

Imon at Termiziy maashur muhaddis Imom al Buxoriy bilan uchrashganida (bu uchrashuv Nishopurda bo'lgan va ikki alloma 5 yil birgalikda yashashgan), hadisning matninigina emas, uning hikmati va falsafasini tushunib yetganini e'tirof etadi. O'z navbatida Imom Buxoriy o'z shogirdini maqtab, kamtarinlik bilan: "*Sen mendan bahra topganingdan ko'ra, men sendan ko'proq bahra topdim*", degan ekanlar. Bu Termiziya berilgan juda katta baho edi [1].

Manbalarda yozilishicha, hadislarni to'plashda va o'rganishda at-Termiziy har bir qulay fursatdan unumli foydalangan. U yo'lda, safarda bo'lganda ham yoki bir joyda muqim turganda ham o'z ustozlaridan, uchratgan roviylaridan eshitgan hadislami darhol yozib olib, ulami tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borgan. O'z davrining yetuk muhaddis olimi sifatida tanilgan at-Termiziy ko'pdan ko'p shogirdlarga ustozlik qilgan. Hadis ilmidagi uning shogirdlaridan Makhul ibn al-Fadl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Hamod ibn Shokir, Abd ibn Muhammad an-Nasafiy, al-Haysam ibn Qulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy va Abul Abbas Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiylarni sanab o'tish mumkin. Musofirchilikdan qaytgan at-Termiziy o'z yurtida yirik muhaddis olim sifatida shuhrat qozongan va ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'lgan. Imom at Termiziy 279-hijriy

(milodiy 892) yilda Termizdan uzoq bo'Imagan Bug' qishlog'ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi [5].

O'z ijodiy va ilmiy faoliyati davrida at-Termiziy bir qancha asarlar yaratdiki, ularning aksariyat qismi bevosita hadislarga bag'ishlangan. Bu davrda islom dinida hadislarga alohida e'tibor qaratildi chunki, islom dinida Qur'oni Karimdan keyingi muqaddas manba bu hadis edi. O'sha davrning o'zidan boshlaboq noaniq, chala-chulpa, hatto soxta hadislar ham el orasida tarqay boshlagan. Shunday paytlarda, ular qayta-qayta tekshirilib, muhaddislarning betinim mehnati natijasida, asl holiga qaytarilib, yozma ravishda qayd qilingan. Natijada, islomshunos yirik ulamolar orasida ishonchli manbalar asosida to'plangan va tartibga keltirilgan oltita hadislar to'plami ("As-sihoh as-sitta") mualliflari eng nufuzli va mo'tabar muhaddislardan deb tan olingan. Mana shu e'tirof etilgan mashhur muhaddislardan biri – Imom at-Termiziydir [2. – B. 57.]

At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. "Al-jomi'" ("Ja'mlovchi"), "Ash-shamoil an-nabaviya" ("Payg'ambarning alohida fazilatlari"), "Al-ilal fi-l-hadiys" ("Hadislardagi og'ishishlar"), "Risola fi-l-xilof va-l-jadal" ("Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola"), "At-ta'rix" ("Tarix"), "Kitob az-zuhd" ("Taqvo haqida kitob"), "Kitob ul-asmo va-l-kuna" ("Ismlar va laqablar haqida kitob") kabi asarlar shular jumlasiga kiradi [2. – B. 56.].

At-Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, "Al-jomi'" bo'lib, avval eslatib o'tganimizdek, payg'ambar alayhissalomga doir oltita ishonchli hadislar to'plamlaridan biridir. Bu asar payg'ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u kishining suvrat va siyratlari, ajoyib fazilatlari, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o'z ichiga qamragan manbadir. Asarning XVI asrga oid bir qo'lyozma nusxasi Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi [6].

Mustaqillik yillarida, butun Islom olamiga taniqli muhaddis, Abu Iso Muhammad at Termiziyning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Surxondaryo viloyati Sherobod tumanida me'moriy yodgorlik barpo etildi. Hozirgi kunda yodgorlik, bir-biridan ravoqlar orqali o'tuvchi 4 xonadan iborat yaxlit ko'rinishda. Yodgorlik haqida ilk bor

D.N.Logofet o‘z ocherklarida tilga olgan. 1945-yil V.L.Voronina me’moriy o‘lchamlarini bajargan. Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan at Termiziy maqbarasida ta’mirlash ishlari olib borilgan. Sag‘anasi va ganjkori panjaralari qayta o‘rnatilgan [3].

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Abu Iso at Termiziy Islom olamida hadis ilmiga katta hissa qo‘sghan buyuk muhaddis olim hisoblanadi. Uning ilmiy merosini o‘rganish hozirgacha davom etadi.

FOYDALANILGA ADABIYOTLAR:

1. **Xolmamatova Mehriniso.** DUNYONING IMOMI, ULUG‘ MUHADDIS ABU ISO MUHAMMAD AT-TERMIZIY HAYOT YO‘LIGA IBRATLI NAZAR / <https://termiziy.uz/uz/news/1550>
2. “Ma’naviyat yulduzlari”. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediasi, 2011. – 368 b.
3. Abu Iso Termiziy maqbarasi / <https://meros.uz/object/abu-iso-termiziy-maqbarasi>
4. Абу Исо Мухаммад ат-Термизий. Сунани Термизий. Тарж. Мирзо Кенжабек. – Тошкент: Адолат, 1999. II жилд. – 688 б.
5. **Uvatov Ubaydulla.** ABU ISO MUHAMMAD TERMIZIY <https://moturidiy.uz/oz/news/1358>
6. Termiziy Abu Iso / https://uz.wikipedia.org/wiki/Termiziy_Abu_Iso